

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

**ROSSIYANING BIRINCHI PREZIDENTI B. N. YELSEN
NOMIDAGI URAL FEDERAL UNIVERSITETI**

TOSHKENT IQTISODIYOT VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**INSON FAROVONLIGINI
O'RGANISHDA FANLARARO
YONDASHUV**

xalqaro ilmiy konferensiya materiallari

I QISM

Toshkent - 2023

Тожибоев Марат. Проблемы развития педагогического мышления студентов на основе индивидуальной образовательной траектории	63
Халдаров Х. А. Исследование качества дополнительно приобретенных знаний с учетом педагогика психологических состояний обучаемых	66
Yuldasheva Saodat. Talabalar kasbiy farovonligini prognozlash	69
Yuldasheva Saodat. Zoxidova Aziza. Oila farovonligi – shaxsning axloqiy mezoni sifatida	73
Зуфаров Т. У. Создание положительного эмоционального состояния у детей как основа их психологического благополучия	75
II SHO'BA. INSON FAROVONLIGINING DEMOGRAFIK JIHATLARI	
Ablusamatova Shahlo, Maxamatqulov Zufar. Projektiv metodikalarning shaxsni o'rganish bo'yicha amaliyotdagi o'rini	79
Абдусаматова Ш.С. Самостоятельно - образовательный кластер как основной фактор благополучия человека	82
Авлаев Ориф, Хасанова Зилола. Ўқитувчи ва ўқувчилар муносабатлари психологияси	86
Авлаев Ориф. Шахсинг социал интеллект ривожланиш даражасига кўра типлари	90
Акрамова Гулбахор. Роль критического мышления в приобщении учащихся к общественным отношениям	93
Атоев Хусниддин, Омонова Гульчехра. Психологические основы организационных межличностных отношений в инклюзивной образовательной среде	98
Абдунабиев Б.А. Развитие личности на основе учений аль-Фараби	103
Атаханов Х.К. Кластерный подход в физическом воспитании как инновационная форма формирования системы подготовки спортивного резерва	105
Буриева Кибрио. Сулейманова Аружан. Этический компонент в образовании и его значимость	107
Буриева Кибрио. Психологические методы повышения мотивации учащихся к чтению	110
Буртешова Алия. Влияние художественного образования на психологическое благополучие студентов вузов	114
Джумаева Феруза. Роль правовой культуры в обеспечении благополучия человека	119
Djumanazarova Ziyada. Overview of the article (multimedia materials in developing countries: the malaysian experience) by Jayakaran Mukundan	121

OILA FAROVONLIGI – SHAXSNING AXLOQIY MEZONI SIFATIDA

Yuldasheva Saodat

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası katta o'qituvchisi

Zoxidova Aziza Botir qizi

Annotatsiya. *Maqolada oila ma'naviyati, oilaviy munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasi, ota-onaga hurmat-e'tibor, mas'uliyat va burch singari insoniy xislatlar, oila ma'naviyatining axloqiy mezonlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *oila, ma'naviyat, axloqiy, mezon, ota-ona, farzand tarbiyasi, ma'naviy-ahloqiy munosabatlar, sog'lom oila muhiti, sog'lom inson.*

Abstract. *The article analyzes family spirituality, culture of family relations, child upbringing, respect for parents, human qualities such as responsibility and duty, moral criteria of family spirituality.*

Key words: *family, spirituality, moral, criteria, parents, child education, spiritual and moral relations, healthy family environment, healthy person.*

Mustaqilligimizning taqdirini, kelajak istiqbolimizni avlodlarimiz taqdiri, ularning tafakkur qudrati, jismoniy va ma'rifiy yetukligi bilan bog'lar ekanmiz, farzandlarimiz dunyoga kelib, tarbiya topadigan maskan – oilaga, yurt obodligiga e'tiborimiz ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisida ta'kidlab o'tganidek: "...biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur" [1]. Shu o'rinda, Sharq va G'arb madaniyati rivojidadagi o'ziga xoslikka nazar tashlaydigan bo'lsak, oila ma'naviyati, oilaviy munosabatlar madaniyati, farzand tarbiyasi, ota-onaga hurmat-e'tibor, mas'uliyat va burch singari insoniy xislatlarda mavjud tafovutlarga duch kelamiz. Oila to'g'risidagi tushuncha va tasavvurlarimizda ham o'ziga xoslik yaqqol seziladi. Biz oilani muqaddas birlik, jamiyatning ilk maskani deb tushunamiz. Bunday e'tiqod bizning azaliy, milliy, mintaqaviy, diniy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashib ketgan. Hatto eng qadimgi e'tiqodimiz sanalgan zardo'shtiylikda ham oila va nikoh masalalariga jiddiy e'tibor berilgan. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelgani bois uni buzish ta'qiqlangan. Oilaning buzilishiga sabab bo'luvchi har qanday hatti-harakat, urf-odat, an'analar, talablar qat'iy qoralanadi. Bunday vaziyatda aybdor tomon, hoh er, hoh xotin bo'lsin, albatta jazolangan [2]. Ko'rinib turibdiki, ajdodlarimiz oila mustahkamligini saqlab qolishni, uni himoya qilishni jamoa ishi deb bilganlar. Darhaqiqat, sharqda oila muqaddas maskan, vatan deb e'tirof etilib, uning daxlsizligi, sha'ni va g'ururi alohida e'tiborda bo'lgan. "Avesto"da ham inson juftligining tub maqsadlaridan biri sog'lom nasl qoldirish deb hisoblangan [2]. So'zsiz, bu o'rinda nasl sog'ligi ham jismoniy, ham ma'naviy-ruhiy barkamollik xususida qo'llaniladi. Oila ma'naviyati eng avvalo o'zida barcha insoniy fazilatlarni, ezgu amallarni va intilishlarni qamrab oladi. Zero, oila

muhitida insonning dunyoga kelishi bilan insoniy munosabatlar, fe'l-atvor, dunyoqarash, ruhiyat va ana shularning negizida ma'naviy ahloqiy poydevor yaratiladi. Ana shu poydevor ustida ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ahloqiy munosabatlar ahamiyatligini o'zida mujassam etgan oila muhiti qad ko'taradi. Vaholanki, oila jamiyatning boshlang'ich bug'ini, yacheykasi ekan, jamiyatga xos barcha munosabatlar oilada kurtak yozadi. Oila ma'naviyatining ahloqiy mezonlari tizimida avval boshda oilaning tashkil etilishida hal qiluvchi omil hisoblangan mehr va muhabbat tuyg'ulari yetakchi rol o'ynaydi. Oila mustahkamligi, sog'lom ma'naviy – axloqiy muhit, totuvlik va hamjihatlik ana shu tuyg,ulardan oziqlanadi. O'z navbatida sog'lom oila muhitida shakllangan ma'naviy-ahloqiy fazilatlar jamiyat taraqqiyotining belgilovchi omillardan bo'lgan milliy birlik va totuvlik, hamkorlik va hamjihatlik xislatlarining qaror topishiga asos bo'lib, jamiyatimiz ma'naviy-ahloqiy qiyofasining shakllanishiga sabab bo'ladi. "Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q" [3]. Oila muhiti inson shaxsini tarbiyalab, voyaga yetkazish bilan bir qatorda, shu tarbiya vositasida uning vujudiga ruhiy, aqliy va ahloqiy kuch-qudrat rishtalarini ulaydi, milliy ruh va diniy e'tiqod tuyg,ularini shakllantiradi. Oilaviy tarbiyada milliy an'analar uyg'unligi yaqqol seziladi. Zotan, ularning har ikkalasida ezgulik va bag'rikenglik, totuvlik va hamkorlik, odamgarchilik, andisha va odob, xushmuomalalik, saxiylik va mehmondo'stlik, insof va diyonat, halollik va sabrqanoat singari fazilatlar ustuvorlik qiladi. Ma'lumki, barcha milliy va diniy an'analarimiz, ularning namoyon bo'lishi va amal qilishi, avvalo, oila muhitida sodir bo'ladi. Shu ma'noda oila muhitida amalga oshadigan tarbiya jarayoni oila ma'naviyatining o'zagini tashkil etadi. Har bir oilaga xos an'ana va udumlar, ahloqiy tarbiya va normalar milliy-ma'naviy xususiyatlarning ana shu kichik ijtimoiy organizmda mujassam holda namoyon bo'lishi ifodasidir. Ushbu mujassamlikda har bir oila a'zosining ma'naviy-ahloqiy qiyofasi uyg'unlashib boradi. Ota o'z hatti-harakatlarida iroda va matonat, qattiqqo'llik va talabchanlik bilan oilada tarbiya muhitini shakllantirsa, ona go'zallik va iboni, mehribonlikni va kechirimlilikni ana shu muhitga singdiradi. Biz hamisha inson to'g,risida, barkamol avlod tarbiyasi haqida o'ylar ekanmiz, avvalambor sog'lom oilaviy muhit, mustahkam oilani shakllantirishga butun imkoniyatlarimizni safarbar etayotganimiz bejiz emas. Vaholanki, insonning qay yo'sinda tarbiya olganligi, insoniy fazilatlar, burch va mas'uliyat uning ongiga qay darajada singdirilganligi oxir-oqibatda biz qanday insonni shakllantirishimizga kelib taqaladi. Ko'rinib turibdiki, soglom oila muhiti soglom insonni tarbiyalab, voyaga yetkazishning birlamchi va hal qiluvchi manbaidir. Shu ma'noda hal qiluvchi ahamiyatga egaki "Oila soglom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir"[4]. Soglom oila ma'naviy muhitida insonni ezgu maqsadlarga va komillikka yetaklovchi fazilatlar qaror topadi, insoniy munosabatlar shakllanib, pirovardida jamiyat taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak // <https://president.uz/oz/lists/view/187>
2. Rasulova T., Manuilova A. Muqaddas kitobda ma'naviy huquqiy tarbiya // "Hayot va qonun" jurnali, 2001-yil. 2-3 son. –B.67.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berish bo'yicha ikkinchi Butunjahon konferensiyasi ochilish marosimidagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/5696>
4. Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008й. –Б.57.
5. Muxtarovna b. d. et al. oilada yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvini ta'minlashda o'zbek xalq ijodiyoti //integration of science, education and practice. november 2022 issn: 2181-3558 journal of integrated education and research scientific-methodical journal. – 2021. – т. 2. – №. 5. – с. 25- 33.
- 6.Бегматова Д. М. Некоторые особенности обучения профессии: на основе семейного образования в узбекской семье //Молодой ученый. – 2011. – №. 5-2. – с. 127-129.
7. Muhammadiyevich G. O. Methods Of Using National Ideas And Values In The Struggle Against Spiritual Threat In Society //Journal of Positive School Psychology. – 2022. – Т. 6. – №. 2s. – С. 326-332.
- 8.Файбуллаев о. ёшларда диний бағрикенгликни шакллантиришнинг фалсафий моҳияти //научнопросветительский журнал" наставник". – 2021. – №. 2.
9. Samadov A. R. Problems of Forming and Developing Person's Aesthetic Ideal //International Journal on Integrated Education. – Т. 2. – №. 6. – С. 132-137.
- 10.Махмудова М Инсоннинг келажигини белгилашда касб танлашнинг аҳамияти //инноватсии в педагогике и психологии. – 2020. – №. si-2№ 4.
- 11.Махмудова М. Воспитание общественной активности у младших школьников. – 1994.
12. Yuldasheva s. m. the role of psychological training in human development in the development of communication qualities //central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis). – 2022. – т. 2. – №. 1. – с. 350-353.
- 13.Yuldasheva s. m. the role of spiritual and moral education in personal development //integration of science, education and practice. scientific-methodical journal. – 2021. – т. 2. – №. 6. – с. 39-44.

СОЗДАНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНОГО ЭМОЦИОНАЛЬНОГО СОСТОЯНИЯ У ДЕТЕЙ КАК ОСНОВА ИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО БЛАГОПОЛУЧИЯ

Т. У. Зуфаров

*Чирчикский государственный педагогический
Университет Старший преподаватель кафедры
"Теория физической культуры"
E-mail: tima.8815@mail.ru*

Аннотация. В статье рассматривается проблема создания положительного эмоционального состояния у детей младшего дошкольного возраста в процессе проведения подвижных игр. Выявляется ряд педагогических условий, способствующих эффективности данного процесса.

Ключевые слова: психологическое благополучие; эмоциональные состояния; детская психология; положительные эмоции; младшие школьники.

Abstract. The article deals with the problem of creating a positive emotional state in children of younger preschool age in the process of conducting outdoor games. A number of pedagogical conditions are identified that contribute to the effectiveness of this process.